
QARDOSH XALQLAR BIRDAMLIGI

"Mening yurtim" (MY5) telekanalining 10 yilligi munosabati bilan **"Qardosh xalqlar" loyihasi** doirasida viloyatning chekka hududi, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh Farg'ona tumani hokimligi binosida matbuot anjumani va info-tur tashkil etildi.

Tashkil etilgan matbuot anjumanida viloyat hokimining turizm, madaniyat, madaniy me'ros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari Ahmedov Xurshidjon Rustamovich, tuman hokimi Inomov Xamidullo Tadjiyevich, tuman hokimi o'rinbosari, viloyat turizm va madaniy me'ros boshqarmasi, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston OAV xodimlari ishtirok etishdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston qadimdan do'stlik va tinchlik, birodarlik va qardoshlik, bag'rikenglik va hamjihatlik rishtalari ulug'langan diyori sifatida jahonda shuhrat qozongan. Ushbu qadriyatlarni yanada yuksaltirish maqsadida so'nggi yillarda olib borilayotgan oqilona va do'stona siyosat natijasida har bir sohada hamkorliklar izchil yo'lga qo'yib borilmoqda.

Loyiha doirasida "Art House Sadosh" MChJga, "Nurafshon" sihatgohiga, "Xazrati Xuvaydo" maqbarasiga va "Markaz" mahallasida joylashgan o'rikni qadoqlash kooperatsiyaga press-tur tashkil etildi.

Abdushukur Erashev

Farg'ona tumani hokimligi Axborot ximati rahbari – tuman hokimi matbuot kotibi
2024-08-05 20:55:48